

FIF – Sanoat Qurilish Banki, Kredit

Mamlakat: O‘ZBEKISTON

Loyiha raqami: 56240

Faoliyat sohasi: Depozitariy krediti (banklar)

Xabarnoma turi: Xususiy sektor

Ekologik toifasi: Moliyaviy muassasa (FI)

Tasdiqlanish sanasi: 2025-yil, 15-aprel

Loyiha bosqichi: Tasdiqlanish arafasida

Loyihaning qisqacha mazmuni

(LQM) Ingliz tilida chop etilgan

sana: 2025-yil, 29-aprel

Axborotdan foydalanish huquqi ko`rsatmasining 1.4.2 (iii) bandiga muvofiq: “Direktorlar rengashi tasdiqlash vakolatini Bank rahbariyatiga topshirgan va Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihamo bo`yicha, LQM Bankni tashkil etish Bitimining 13-moddasi (iii) bandiga muvofiq, Bank a’zo davlati uchun tegishli e’tiroz bildirmaslik to‘g’risidagi xabarnoma davri boshida e’lon qilinadi.

Loyiha mazmuni

Sanoat qurilish bank (SQB) ga mahalliy valyutadagi ekvivalenti yoki AQSh dollarida 25 million AQSh dollarigacha bo‘lgan ta’minotsiz katta kredit taqdim etilishi ko‘zda tutilgan. Kredit ikki teng qismda, har biri 12,5 million AQSh dollarigacha bo‘lgan transhda beriladi, ikkinchi transh majburiy bo‘lmagan (uncommitted) bo‘ladi. Kredit Markaziy Osiyo uchun “Biznesda yoshlar” moliyalashtirish dasturi (YiBP CA) doirasida aralash moliyalashtirish manbalaridan foydalanish holda Moliyaviy vositachilar uchun dastur (“FIF”) orqali taqdim etiladi.

Loyiha maqsadi

Kreditning maqsadi quyidagilardan iborat:

- (i) yoshlarga yo‘naltirilgan yangi moliyaviy mahsulotni ishga tushirish orqali SQBning mahsulotlar taklif ko‘lamini kengaytirish. Ushbu yangi mahsulot yoshlarga mo‘ljallangan moliyalashtirish va moliyaviy bo‘lmagan xizmatlarni (NFS) o‘z ichiga oladi, bu esa ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari va iqtisodiy ko‘nikmalarini oshiradi;
- (ii) SQBning moliyaviy manbalar asosi diversifikatsiyalanadi.

O‘tish davri ta’siri ko‘rsatkichi

ETI 71

SQB bilan imzolanayotgan ushbu shartnomada O‘zbekistonda “Biznesda yoshlar” dasturi (YiBP CA) doirasida amalga oshirilayotgan uchinchi bitim bo‘ladi. Loyiha umumiy Dastur maqsadlariga hissa qo‘sadi hamda uning inklyuziv (asosiy) va raqobatbardosh (ikkinchi darajali) xususiyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur moliyaviy dasturdan yosh tadbirdorlarga kredit berish ko‘laming kengayishiga, SQB salohiyatining oshishiga va yosh biznes egalariga/rahbarlariga ko‘nikmalar o‘tishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Mijoz haqida

SQB AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

SQB O‘zbekistondagi ikkinchi yirik bank bo‘lib, 2024-yil oxirida jami aktivlari 6,5 milliard AQSh dollari, kreditlari 4,9 milliard AQSh dollari va kapitali 0,7 milliard AQSh dollari ekvivalentini tashkil etadi. Bank butun mamlakat bo‘ylab 115 ta filial orqali faoliyat yuritgani

holda, 4 037 nafar xodimlari orqali 3,1 million mijozga xizmat ko‘rsatadi. SQB faoliyati Fitch agentligi tomonidan 2025-yil 26-mart holatiga barqaror faraz bilan BB- darajasida baholangan.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'

25,000,000.00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

25,000,000.00 AQSH dollari

Qo‘sishchilik korsatkichlari

Moliyalashtirish tuzilmasi:

- (i) Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) bozorda mavjud bo‘lmagan shartlarda mahalliy valyutada moliyalashtirishni taklif etadi.
- (ii) YTTB mijozga bozorda mavjud bo‘lganidan uzoqroq muddatli kredit shartlarini taklif qiladi, bu esa asosli va maqbul shartlar asosida amalga oshiriladi.

Innovatsion moliyalashtirish tuzilmalari va/yoki vositalari:

Loyiha Markaziy Osiyo bozorida moslashtirilgan va innovatsion vosita bo‘lgan “Natijaga asoslangan kompensatsiya” (RBC) dan manfaatdor bo‘ladi. RBC SQBning o‘z mijozlariga qo‘yadigan ta’minot talablarini yumshatilishi yoki moslashuvchan qilinishi imkonini beradi.

Standartlarni o‘rnatish:

Moliyalashtirish hamda RBC va texnik ko‘mak (TC) elementlarining kombinatsiyasi orqali Dastur SQBga kam ta’minlangan yosh tadbirkorlar segmentining ehtiyojlarini chuqurroq tushunishi va hisobga olish orqali inklyuziv moliyalashtirish standartlarini oshirishiga yordam beradi. Keng qamrovli texnik ko‘mak paketi SQBga mahsulotlari va xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini yosh tadbirkorlarning ehtiyojlariga moslashtirishida yordam beradi, bu esa ushbu segment salohiyatidan to‘liq foydalanish va ularning moliyaviy inklyuzivligini tezlashtirish imkonini beradi.

Bilim, innovatsiya va salohiyatni oshirish:

SQB Dasturning keng qamrovli salohiyatni oshirish faoliyatdan foyda ko‘radi. Bunga ishtirokchi moliyaviy muassasa larga va yoshlarga tegishli mikro, kichik va o‘rta bizneslarga Biznesga ko‘mak dasturi orqali trening va maslahat ko‘magi kiradi. Natijada barcha ishtirokchilarga mahalliy bozorda mavjud bo‘lmagan bilim va tajribaga ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Raqamlar xizmat ko‘rsatish yo‘nalishiga kuchli urg‘u berilishi natijasida poytaxt dan tashqaridagi hududlarda xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi va yangi moliyaviy mahsulotlarning yosh tadbirkorlar hamda mikrokompaniyalar uchun jozibadorligi oshadi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Mijoz moliyaviy muassasa toifasiga kiritilgan (ESP 2024). SQB YTTBning amaldagi mijozlaridan biri bo‘lib, hozirgi majburiyatlar doirasida YTTBning ekologik va ijtimoiy talablari bilan muvofiqlikda ishlamoqda. Dasturga muvofiq subloyihalar yoshlar tomonidan boshqariladigan mikro, kichik va o‘rta bizneslarga (MKO‘B) beriladigan kreditlardan iborat bo‘lib, ular ekologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan past yoki o‘rta darajadagi xavfga ega bo‘lishi kutilmoqda. SQBda MKO‘B uchun beriladigan kreditlar bilan bog‘liq xavflarni boshqarishga mos ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi mavjud.

Mijoz YTTBning Ekologik va Ijtimoiy Siyosati (ESP), shu jumladan, 2-, 4- va 9-sonli Ekologik va Ijtimoiy Talablar (ESR) hamda moliyalashtirish bo'yicha istisnolar ro'yxatiga doimiy ravishda amal qilishi lozim. Shuningdek, u MKO'Blarga kredit berishda ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish bo'yicha ko'rsatmalarga amal qilishi va YTTBga har yili ekologik va ijtimoiy hisobotlarni taqdim etib borishi shart.

SQBdan subqarz oluvchi mijozlar esa milliy ekologik, sog'lijni saqlash, xavfsizlik va mehnat qonunchiligi talablariga rioya etishlari lozim.

Texnik ko'mak

SQB "Biznesdagi yoshlar" (YiB) dasturi doirasida quyidagi ko'makdan foydalanadi:

1) YiBP CA bo'yicha texnik ko'mak (TC):

Texnik ko'mak ikki qismidan iborat:

(i) ishtirokchi moliyaviy institutlar uchun moslashtirilgan salohiyatni oshirish qismi:

- Moliyalashtirish manbai: YTTB aksiyadorlarining maxsus fondi (SSF)
- Miqdor/valyuta: 4 million yevro, mintaqaviy dastur darajasida

(ii) Yosh MKO'Blarning salohiyatni Biznesga ko'mak dasturi orqali oshirish:

- Moliyalashtirish manbai: YTTB aksiyadorlarining maxsus fondi (SSF)
- Miqdor/valyuta: 6 million yevro, mintaqaviy dastur darajasida

SQB seminarlar, tadbirlar, marketing faoliyatları va materiallarga o'z hissasini qo'shadi, bu materiallar YiBga oid mahsulotlar bo'yicha trening va targ'ibot uchun ishlatalishi mumkin.

2) Hamkorlikdagi investitsiya grantlari / Imtiyozli moliyalashtirish ("TC emas"):

Loyiha YiB krediti summasining 3 foizigacha bo'lgan natijaga asoslangan kompensatsiya (RBC)ni o'z ichiga oladi (750 000 AQSh dollarigacha). RBC SQBning YiB kredit portfelini kengaytirish uchun zarur infratuzilmani yaratishga qilinadigan boshlang'ich investitsiyalarini qoplash va rag'batlantirish uchun mo'ljallangan.

- Moliyalashtirish manbai: YTTB aksiyadorlarining maxsus fondi (SSF)
- Miqdor/valyuta: jami 750 000 AQSh dollari (kredit summasining 3 foizi)

Kompaniyaga bog'lanish ma'lumotlari

Abdurashid Khakimov, Moliyaviy muassasalar va investitsion aloqalar boshqarmasi boshlig'i
akhakimov@sqb.uz;

+99878 1204500 qo'shimcha raqam 7600

<https://sqb.uz>

Shahrisabz ko'chasi 3-uy, Toshkent, 100000, O'zbekiston

LQM oxirgi marta tahrir etilgan sana

2025-yil, 29-aprel

O‘tish davri nima

YTTBning mamlakatdagi o‘tish jarayoniga loyihaning ta’sirini baholash yondashuvi bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumotni mana shu yerdan topishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo‘lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog‘laning:

tel: +44 20 7338 7168

email: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar bo‘yicha: EBRD Procurement veb sahifasida

Tel. : +44 20 7338 6794,

Electron pochta: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Xos savollaringizni YTTBning ma’lumot so‘rovi havolasi orqali yuborishingiz mumkin.

YTTBning ekologik-ijtimoiy siyosati (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda ESP va uning tarkibiy qismi bo‘lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘srimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumotlarni ESPdan topish mumkin.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me’yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas’uliyatli boshqaruvga ko‘maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg‘or xalqaro tajribalarga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo‘l qo‘yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko‘ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste’mol qilish bo‘yicha ma’lumotni tekshiruvchi mas’ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo‘lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig‘iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron pochtasi orqali xabar

qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzdagi xabarlar tekshirib chiqiladi. Bu turdag'i xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (IAP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi "Axborotdan erkin foydalanish siyosati" bo'limiga kiring. Xos savollaringizni YTTBning ma'lumot so'rovi havolasi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (PCM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni PCM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin. PCM, arizachilarining fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish;
- Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik-ijtimoiy siyosati talablariga, shuningdek loyiha o'idi tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash;
- zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'rildigan choralarini ko'zda tutish.

Marhamat, Loyihalar hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM) haqida ko'proq ma'lumot olish, uning vakolati va arizani qanday topshirish haqida bilish uchun IPAM veb-sahifasiga tashrif buyuring.

Shuningdek, IPAM bilan quyidagi elektron pochta orqali bog'lanib, ariza topshirish bo'yicha yo'l-yo'riq va qo'shimcha ma'lumotlar olishingiz mumkin: ipam@ebrd.com.